



Yangi Konstitutsiyada tadbirkor huquqi

2-betda o'qing



Har doim va har qanday vaziyatda konstitutsiyaviy huquqingizdan foydalaning!

2-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
9-MAY
SESHANBA

№ 18 (1378)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



MUDDATIDAN ILGARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVINI TAYINLASH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110 va 128-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 66-moddasiga asosan:

1. 2023-yil 9-iyul kuniga muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tayinlansin.
2. Mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga yuborilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. Mirziyoyev

Toshkent shahri,
2023-yil 8-may



Konstitutsiyada Inson huquqlariga oid 10 ta eng muhim kafolat

3-betda o'qing

Shavkat Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining holidan xabar oldi



Yurtimizda Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanmoqda. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari rag'batlantirilib, salomatligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, shu kunlarda ularning bir guruhi sanatoriylarda davanolmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Toshkent shahridagi "Chinobod Plaza" sanatoriysiga borib, urush qatnashchilarining holidan xabar oldi. Anorboy ota Jalilov, Ashir ota O'sarov, Antonina Kolomenseva, To'lagan ota Imomov, Abbas ota Appanov bilan dildan suhbatlashdi.

– Sizlarni ko'ray, bayram bilan tabriklay deb keldim. Bu, avvalo, sizlarning bayramingiz. O'sha paytlardagi jasorat va matonatingiz tufayli keyingi avlodlar tinch, erkin yashadi. Mashaqqatli mehnat va zafarlarga to'la hayot

yo'lingiz bugungi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabi, vatanparvarlik maktabi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Siz bilan butun el-yurtimiz faxrlanadi, – dedi davlatimiz rahbari.

Urush qatnashchilari hurmat va mehr og'ushida yashayotgani, sog'lig'i yaxshi, hayotidan rozi ekanini aytdi. O'zlari istiqomat qilayotgan hududda, farzand va nabiralarning hayotida bo'layotgan o'zgarishlar haqida gapirdi.

– Mana, yaqinda yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik, – dedi Prezident. – Mamlakatimiz rivojini oshirish, xalqimiz hayotini yaxshilash bo'yicha katta marralar oldik. Mana shunday o'zgarishlar paytida sizdek katta tajribaga ega insonlarning yonimizda bo'lishi, maslahatlaringizni olish bizga cheksiz kuch-g'ayrat beradi.

Nuroniylar e'tibor va g'amxo'rlik uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirib, xayrli duolar qildi.

– Tabarruk duolaringizni olish, sizga qo'shilib xalqimizning tinchligini so'rash – katta baxt. Hayotda ko'p-ko'p sinovlarni ko'rgan, qariyb bir asrlik hayot tajribasiga ega bo'lgan sizday muhtaram insonlarning duolari ijobat bo'ladi. Nuroniylarimiz uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga bundan buyon ham katta e'tibor qaratamiz. Bu – biz uchun muqaddas burch va vazifadir, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Uza



"Navoiy yo'l ko'klam"ning chekiga bir milliard tushdi

HAYOTDA odamlarning lafzsiyligi oqibatida bir-birini aldaganini kuzatdik. Keyin tadbirkorlar bir-birlarining katta mablag'larini aldov yo'li bilan o'zlashtirganini eshitdik. Endi esa shartnoma shartlarini bajarmaslik holatlarini ko'p kuzatayapmiz.

4-betda o'qing



Mehnat ta'tilini hisoblashda yakshanba ham qo'shiladimi?

7-betda o'qing

2 JARAYON

TADBIRKORLIKKA keng yo'l ochilgani tufayli, so'nggi olti yilda ularning soni 6 baravar oshib, bugungi kunda 2 millionga yetdi. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlar soni 26 ming nafarga, 100 million dollarga yetkazganlar esa 220 nafarga yetdi.

YANGI KONSTITUTSIYADA TADBIRKOR HUQUQI



Ta'kidlash lozimki, eski Konstitutsiyada tadbirkorlik qilish erkinligi kafolatlanadi, degan norma bilan cheklanib, tadbirkorlarning to'laqonli faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqlariga doir maxsus normaning belgilanmagani huquqiy tizim uchun "bo'shliq" hisoblanardi.

Endilikda Konstitutsiyamizning 67-moddasiga ko'ra, "Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli", degan mazmundagi normaning kiritilishi orqali mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy konstitutsiyaviy kafollatlari belgilab qo'yildi.

Xo'sh, tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishda mazkur norma qanday ahamiyat kasb etadi?

Birinchidan, tadbirkorlarni qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga haqli ekanligining belgilanishi, daromad olish asosiy maqsadi bo'lgan tadbirkorlar uchun iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat yuritish huquqini konstitutsiyaviy kafolatlaydi. Darhaqiqat, qayerda daromad olish imkoniyati bo'lsa, kapital va investitsiyalar shu tarafdin qarab hech qanday to'siqsiz harakatlanadi. Bu bozor iqtisodiyotining oltin qoidalaridan biri hisoblanadi. Bunda, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish bo'yicha qonun hujjatlarida hech qanday taqiq qo'yilmagani muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, o'z faoliyat yo'nalishini mustaqil ravishda tanlash huquqi tadbirkorlarga o'z biznes strategiyalarini boshqa shaxslarning, davlat organi va uni mansabdor shaxslarining o'zboshimchalik bilan aralashuviz, o'z xohishi va manfaatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ta'kidlash lozimki, Xorvatiya, Estoniya, Polsha kabi mamlakatlar konstitutsiyalarida ham shunday mazmundagi normalar mavjud.

Konstitutsiyamizga kiritilgan mazkur qo'shimchalar erkin bozor iqtisodiyotining eng muhim talabini o'zida ifoda etib, davlatning tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etishga doir asosiy yondashuvini belgilaydi hamda "qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyatga ruxsat beriladi" prinsipi asosida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy mezonlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'ydi.

Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlar erkin va samarali faoliyat yuritishiga, biznes muhitini yaxshilashga, ichki va tashqi savdo rivojlanishiga, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ularning bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqsud MUSTAFOYEV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

HAR qanday huquqni to'liq amalga oshirish uchun albatta, qonuniy asos kerak. Qonuniy asos har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Yangi Konstitutsiya yaxshi ya-shashimiz va munosib turmush kechirishimiz uchun barcha huquqlar jamlanmasiga ega. Shulardan biri Konstitutsiyamizning 31-moddasida o'z ifodasini topgan shaxsiy huquqlarimizdir. Ushbu moddada quyidagi huquqlarimiz ko'rsatib o'tilgan:

- ☑ har bir insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi;
- ☑ shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqi;
- ☑ o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi;
- ☑ har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi;
- ☑ har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqi;
- ☑ uy-joy daxlsizligi huquqi.

HAR DOIM VA HAR QANDAY VAZIYATDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQINGIZDAN FOYDALANING!


Birgina moddada bir nechta huquqning ifodalanishi Konstitutsiyamizning inson huquq va manfaatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligining yorqin dalilidir.

Har bir insonning shaxsiy hayot daxlsizligiga ega bo'lishi bu uning shaxsiy hayot ishlariga hech kim aralasha olmasligini anglatadi. Bu esa demokratik davlatning birinchi ko'rinishlaridan biridir.

Shuningdek, har kuni internet tarmoqlari orqali ayrim shaxslarning shaxsiy yoki oilaviy sirlariga bog'liq ma'lumotlar tarqatilmoqda. Ushbu harakat umuman noqonuniy va ushbu harakatning noqonuniy ekanligini ko'rsatish maqsadida Yangi Konstitutsiyamizda har bir inson shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqiga egaligi ko'rsatib o'tildi. Bu esa bunday huquqi buzilgan shaxsning to'liq ushbu moddaga asoslangan holda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yoki sudga murojaat qilish imkonini beradi hamda shu orqali o'z huquqlarini tiklay oladi.



Qolaversa, har birimizning sha'nimiz va qadr-qimmatimiz bor hamda uni hamma munosib hurmat qilishini xohlaymiz. Amaldagi Konstitutsiyamizda sha'nimiz va qadr-qimmatimizni hech kim tahqirlamasligini va uning munosib himoya qilinishini davlat kafolatlamogda.



Keyingi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarda "Suratlarini tarqatish bilan qo'rqitdi", "Ta'magirlik qilgan shaxs qo'lga olindi" degan mazmundagi xabarlarini uchrataymiz. Ayrimlarning telefon so'zlashuvlari yoki yozishmalari g'arazli maqsadlarda tarqatilmoqda yoki ayrim shaxslar ushbu ma'lumotlarni tarqatish vaji bilan boshqa shaxslardan mablag' talab qilmoqda. Bundan qo'rqan fuqarolar o'z huquqlarini bilmasdan firibgarlik qurboniga aylanmoqda. Konstitutsiyada har bir shaxsning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi mustahkamlab qo'yilgan va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Shuningdek, ayrim ma'lumotnomalarda (tug'ilganlik haqida guvohnoma, pasport, ID karta, diplom yoki ish joyidan beriladigan guvohnoma) shaxsning ma'lumotlari noto'g'ri ko'rsatilishi holatlari ham kuzatilmoqda. Konstitutsiyamizda har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini talab qilishga haqliligi belgilangan. Bu esa insonda kelgusida huquqiy oqibatlar yuzaga kelishining oldini oladi.

Bundan tashqari, Yangi Konstitutsiyamizning 31-moddasida uy-joy daxlsizligi huquqi ta'kidlab o'tilgan. Ko'pchilikda bu o'zi aynan nimani anglatadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Uy-joy daxlsizligi deganda, har bir insonga tegishli bo'lgan uy-joyning har qanday shaklda himoya qilinishini tushunish lozim. Masalan, ushbu uy-joyga hech kim uning ruxsatisiz kira olmaydi yoki unga zarar yetkaza olmaydi, agar zarar yetkazsa sud orqali yetkazgan zararni undirib olishi mumkin.

Konstitutsiyamizning 31-moddasi to'liq inson huquq va manfaatlarini ko'zlagan holda ishlab chiqilgan va qabul qilinganligiga hech qanday shak-shubha yo'q!

Har doim va har qanday vaziyatda konstitutsiyaviy huquqlaringizni himoya qilishga odatlaning.

Salamat TUREMURATOV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARIGA OID 10 TA ENG MUHIM KAFOLAT



Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi;



Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir;



Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlarning, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi;



Hech kimga uning roziligsiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas;



Insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak;



Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega;



Har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega;



Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega;



Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli;



Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.

SURISHTIRUV, TERGOV VA SUD JARAYONIDA:

➔ Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart;

➔ Shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin;

➔ Aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak;

➔ Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas;


➔ Shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas;

➔ Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas;

➔ Hibsga olish, qamoqqa olish va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi;

➔ Yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishini cheklashga hamda uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi;

➔ Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.



Ommaviy axborot vositalariga oid 5 ta muhim qoida:



Davlat Internet tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun sharoit yaratadi;



Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydi;



Davlat ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi;



Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchilligi uchun javobgardir.



Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi;

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

SAMARQAND

NARPAY tumanidagi Navoiy mahallasida yashovchi fuqaro R. Haydarova tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan noqonuniy ishdan bo'shatilgan.



Fuqaro ISHGA TIKLANDI

Ma'lum bo'lishicha, tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limining 2022-yil 10-maydagi buyrug'iga asosan 56 nafar mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari, shu jumladan yuqoridagi mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ham Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 1-bandiga asosan bekor qilingan. Taqajublanarlisi, xodimga mazkur buyruq nusxasi berilmagan. Bu esa Mehnat kodeksining 108-moddasiga ziddir.

Qonunchilikka ko'ra, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi har bir mahallada mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis lavozimi o'rniga bir nafardan xotin-qizlar faoli lavozimi mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibi saqlangan holda joriy etilishi belgilangan. Ya'ni, shtat birliklari qisqartirilishi nazarda tutilmagan.

Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 98-moddasi birinchi qismiga asosan korxona mulkdori almashganda, xuddi shuningdek korxona qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilgan, birlashtirilgan, bo'lib yuborilgan, qayta tuzilgan, ajratilganda) mehnat munosabatlari xodimning roziligi bilan davom etaveradi.

2022-yil 10-mayda qabul qilingan R. Haydarova bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruq, buyruqni qabul qilish vakolatiga ega bo'lmagan tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i tomonidan qabul qilingan.

Murojaatni o'rganish natijasiga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaroni ishga tiklash masalasida sudga da'vo arizasi kiritildi. Sud tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi chiqargan 2022-yil 10-maydagi buyruqning R. Haydarovaga tegishli qismini g'ayriqonuniy deb topdi va Fuqarolik protsessual kodeksining 249-253-moddalarini qo'llab, uni ishga tiklash, majburiy progul kunlar uchun 14 million 920 ming 957 so'm ish haqi undirish haqida qaror qabul qildi.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat
adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

NAVOIY

HAYOTDA odamlarning lafzsiyligi oqibatida bir-birini aldaganini kuzatdik. Keyin tadbirkorlar bir-birlarining katta mablag'larini aldov yo'li bilan o'zlashtirganini eshitdik. Endi esa shartnoma shartlarini bajarmaslik holatlarini ko'p kuzatayapmiz.

"Navoiy yo'l ko'kalam"ning chekiga bir milliard tushdi

Qiziltepa tumanidagi "Qiziltepa cotton trans" mas'uliyati cheklangan jamiyati hududidagi "Navoiy yo'l ko'kalam" unitar korxonasining buyurtmasiga asosan pudrat ishlari amalga oshirish uchun 1 milliard so'm atrofida pul sarfladi. Shartnoma sharti hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish uchun sug'orish tizimini o'rnatishdan iborat edi. Tuman markazining yo'l atrofidagi gulzorlarning ko'zni quvnatib, chiroy berishida shu korxonaning hissasi beqiyos. Biroq adliya ish yurituviga olingan murojaat tufayli amalga oshirilgan xizmat tekshiruvda aniqlanishicha, "Navoiy yo'l ko'ka-

lam" unitar korxonasi lafzini buzgan, qilingan mehnatga haq to'lamagan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan "Qiziltepa cotton trans" mas'uliyati cheklangan jamiyat manfaatida "Navoiy yo'l ko'kalam" unitar korxonasi mutasaddilari hatto sud ishida ham ishtirok etmadi. Sud esa adliya bo'limi da'vosini qanoatlantirdi. Sud qarori bilan "Qiziltepa cotton trans" MChJga qariyb bir milliard so'm to'lab beriladigan bo'ldi.

Abduvali ASADOV,
Qiziltepa tuman adliya
bo'limi boshlig'i

ANDIJON

TADBIRKORLARNING huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida adliya idoralari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



TADBIRKORNING QO'LI BALAND KELDI

Xususan, Paxtaobod tuman adliya bo'limi tomonidan "Paxtaobod qurilish sifat" MChJning murojaati o'rganildi. Unga ko'ra, MChJ 2020-yilda tuman hokimligi va tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan og'zaki va yozma shartnoma asosida kelishilgan qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirgan. Biroq har ikkala tashkilot tomonidan o'tgan uch yil davomida tadbirkorning hisob raqamiga shartnomada nazarda tutilgan pul mablag'lari o'tkazilmagan.

Ushbu holat yuzasidan tuman adliya bo'limi tomonidan "Paxtaobod qurilish sifat" MChJning manfaatini ko'zlab, izboskan tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. 3 oy davom etgan sud jarayoni natijasida tadbirkorga jami 687 million 446 ming 531 so'm undirilishi yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilindi.

Ahadjon G'ULOMJONOV,
Paxtaobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

XORAZM

"OMAD CHORVADOR" fermer xo'jaligi rahbari B.B.ning fermer xo'jaligiga qarashli dalasi zaxira yer fondiga qaytarilganidan norozi bo'lib qilgan murojaati Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.



HOKIM QARORI haqiqiy emas deb topildi

Aniqlanishicha, Xonqa tuman hokimining 2015-yil 26-avgustdagi tegishli qarori bilan "Omad chorvador" fermer xo'jaligiga umumiy yer maydoni 150,2 gektar yer ajratib berilgan. Hokim qaroriga asosan fermer xo'jaligi va tuman hokimligi o'rtasida yer uchastkasini uzoq muddatli ijara olish to'g'risida 2021-yil 8-noyabrda shartnoma tuzilib, yer maydoni ijara qabul qilingan.

Fermer xo'jaligi 2019-2022-yillarda ijara olingan yer maydo-

niga belgilangan ekinlarni ekib, faoliyat yuritib kelgan hamda soliqlarni belgilangan tartibda to'lab kelgan.

Biroq, 2022-yilning 22-dekabriga kelib fermer xo'jaligi rahbari tuman hokimining 2019-yil 14-fevraldagi tegishli qarori bilan fermer xo'jaligiga qarashli yer zaxira yer fondiga qaytarilgani to'g'risida xabardor qilingan.

Ma'lum bo'lishicha, tuman hokimining 2019-yil 14-fevraldagi qarori qabul qilinish, unda "Omad

chorvador" fermer xo'jaligi va tuman hokimligi o'rtasida tuzilgan yer uchastkasini uzoq muddatli ijara olish to'g'risidagi shartnomani bekor qilish, yer maydonini zaxira yer fondiga qaytarish va fermer xo'jaligini tugatish belgilangan.

Tuman hokimining ushbu qarorini qabul qilishga asos bo'luvchi hujjatlar o'rganilganda, fermer xo'jaligi rahbarining ijara shartnomasini bekor qilib, yer maydonini zaxira yer fondiga qaytarish to'g'risidagi arizasi mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Yer kodeksining 24-moddasiga ko'ra, yer uchastkalarini ijara olish shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tashkilotlarning kelishuvi bilan, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sudning hal qiluv qarori bilan amalga oshiriladi.

Aniqlangan holatlar yuzasidan sudga kiritilgan ariza qanoatlantirilib, tuman hokimining 2019-yil 14-fevraldagi qarori haqiqiy emas, deb topildi va fuqaroning murojaati ijobiy hal etildi.

Rasulbek IBRAGIMOV,
Xorazm viloyat adliya
boshqarmasi mas'ul xodimi



Onam o'n besh yoshida turmushga chiqqan. O'sha davrlarda (1950-1960 yillar) qizlar yosh uzatilgan. Otam onam bilan oila qurganida boshpanasi bo'lmagan. Otamning amaki akasi boshqa joyga ko'chib ketayotganligi sabab o'zi yashab kelgan pastqamgina bir xonali uyni yangi oilaga qoldiradi. Hali chillasi chiqmagan yosh oila. Ro'zg'orning esa kamuko'stini yopish kerak. Shuning uchun otam boshqa viloyatga ishga, onam esa tumanning olis qishlog'ida yashovchi opasinikiga gilam to'qishga ketadi. Bir oylardan so'ng otam ikki qop un, bir xo'rjin idish-tovoq ortilgan eshakda uyga qaytadi. Onam ham bir oy mobaynida uchta gilamni to'qib tugatib, qo'lida pul bilan keladi. Shu zayl yangi oilaning poydevori mustahkamlanib boradi.

Armonimsiz

SO'ZI HIKMAT, AMALI O'RNAK ONAJONIM!

Darvoqe, otamga otasidan hech narsa meros qolmagan. To'g'rirog'i, meros qoldiradigan narsaning o'zi bo'lmagan. Balki urushdan omon qaytganda, hammasi boshqacha bo'larmidi... (Otamning otasi Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan). Oilasining oyoqqa turib olishi uchun otam avval Nurota tumanining Qizilqum yaylovlarida cho'ponlik qiladi, keyinroq esa Payariq tuman elektr tarmoqlari korxonasiga montyor bo'lib ishga o'tadi. Otam haftaning faqat shanba va yakshanba kunlari uyda bo'lib, qolgan kunlari ishxonasida yotib ishlashga majbur bo'lgan. Farzandlar tarbiyasi, uydagi yengil, og'ir yumushlar esa onamning gardaniga tushgan.

UY QURILISHI

Yashab kelayotgan kichkina uyning yonidan kattaroq uy solish taraddudiga tushgan ota – onam uyni o'zlari qurishga kirishadi. Ustaga ketadigan xarajatlarni boshqa maqsadlarga jamg'arishni niyat qilishadi. Onam uy ishlaridan qo'li bo'shadi deguncha, qirdan tosh keltirib to'playdi. Otam esa dam olish kunlari, ya'ni shanba va yakshanbada to'plangan toshlardan devor ko'taradi. Chamasi ikki yillarda uyni bitirib, ko'chib kirishadi.

Uy bitguncha otam usta, onam yordamchi bo'ladi. Yangi xonadonga bironta gilam yoki ko'rpa-yosti

ham sotib olinmaydi. Ularning hammasini onamning o'zi qo'lda to'qib, tikib to'ldiradi. Hatto, ortganini sotib, ro'zg'orning kami-ko'stiga ishlatadi.

Birda oldin, birda keyin bo'lib, halol rizq bilan hayot kechirib borgan ota-onam besh o'g'il, besh qizni voyaga yetkazdi. Besh qizni uzatib, besh o'g'ilni uyadi.

Yaxshi niyatlar bilan qishloqning etagidan yana ikkita uy ko'tardi. Bunga ham o'zlari bosh-qosh bo'ldi. Uylar atrofini bog' qildi, uzumzor yaratdi. Farzandlarni halol mehnatga o'rgatdi. Mehnat ortidan har qanday ulug' maqsadga, yaxshi kunlarga yetib yashashni amalda ko'rsatdi.

ONAM YETISHTIRGAN TARVUZLAR BUTUN QISHLOQQA YETARDI

Keyin qurilgan uyimiz joylashgan joy lalmikor bo'lsa-da, yer bo'liq, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun qulay hisoblanadi. Ko'chib kelgan yillari quduq suvidan foydalanilgan. Bir necha yillar o'tib artezian qilingan. O'sha vaqtda uyimiz yonidagi anchagina yerda lalmi tarvuz-qovun yetishtirardik. Ertalab palagidan uzilib qolgan, yorilib ketgan qovunlarni terib chiqardik. Ularning shirinligini so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Boshqacha edi...

Uyimiz yo'lining yuzida bo'lgani bois o'tgan-qaytgan odam borki, to'xtab yo tarvuz yo qovundan yeb ketardi. Haftaning dushanba kuni onam qovun-tarvuzlardan ko'proq uzib qo'yardi. Chunki aynan shu kuni qishloqning bozori bo'ladi, tog' tarafdagi odamlar bozorga ikki traktorda kelishadi. Ikkala traktorchi ham bozordan qaytishda uyimiz oldiga kelib to'xtardi. Ellikdan ziyod odamga tarvuz-qovun kesib berilardi. Onam ham o'sha tog' tarafdin kelin bo'lib tushgan-da, shuning uchun ham onamni qora

tortib kelaverishardi.

Bizga qo'shni bo'lganlar ham qovun-tarvuz yetishtirishar, lekin mazasi biznikiday bo'lmardi. Ham-soylar hayron. Yerimiz bir bo'lsa, sizlarniki ham, bizlarniki ham suv ichmasa, nimaga biz ekan qovun-tarvuzlarning tami sizlarnikiday emas, deya.

Buning sababini men bilaman. Bizning qovun-tarvuzlar pishib yetulguncha onam kamida uch-to'rt marta chopiq qilib, tubiga tuproq uyib chiqardi. Hatto, biz chopib chiqqanlarni ham onamning o'zi qaytadan ko'rib chiqardi. Har yili kuzda saralanganidan 400-500 dona qovun-tarvuz uzib olardik. Va u fevral oyigacha yetardi.

YOSH BOLANI KUTIB AFTOBUSDAN QOLIB KETGAN ONAM

Qishlog'imizdan tuman markaziga qatnaydigan bitta avtobus bo'lardi. Ertalab markazga boradi, tushlikdan keyin qishloqqa qaytadi. Bir kuni onam qayergadir borishi kerak bo'ldi-da, shu avtobusda ketadigan bo'ldi. Avtobus uzoqdan ko'ringandan onam yo'lga chiqdi. Avtobusga chiqish uchun yo'lining narigi tarafiga o'tishi kerak bo'lgan. Ammo yo'lida bitta yosh bola eshakda kelayotganini ko'rib, uning yo'lini kesib o'tmayin, deya to'xtagan. Bola o'tguncha avtobus ham o'tib ketgan.

Onamga avtobusga chiqish uchun nega yo'lining u tarafiga o'tmadingiz desak, yo'lida erkak kishi kelayotgan ekan, qanday qilib uning yo'lini kesib o'taman dedi. Biz eh, onajon axir bu hali ena suti og'zidan ketmagan yosh bola-ku, o'tib ketavermaysizmi deymiz. Onam esa ayol kishi xoh u katta bo'lsin, xoh kichik bo'lsin erkak kishining yo'lini kesib o'tmasligi kerak, degan edi.

Bu gaplar bugun balki erish tuyular. Ammo o'shanda onalari-miz shunday bo'lgan: erkak kishining yo'lini kesib o'tmagan, yuziga tik qaramagan, ro'zg'orning kami-ko'stidan nolimagan, boriga qanoat qilgan, sabrli bo'lgan, oilani birinchi o'ringa qo'ygan...

Allohnin irodasi ekan, bundan uch yil avval onam dardga chalinib qoldi. O'shanda onam shunday degan edi: "Endi armonim yo'q. Farzandlar katta qildik, hammasi uyli-joyli bo'ldi. Nevara-chevaralar suydik, buyog'iga aka-ukalar, opa-singillar ahil va inoq bo'lib yashasanglar bo'ldi".

Ammo onam bizga armon bo'lib qoldi. Bugun onamning mehrini, qo'llarining taftini tuygim keladi. Onam qaysi farzandini bormasin, o'sha yerda bayram bo'lardi. Nevaralarining eng yaxshi ko'rgan buvisi edi. Bugun o'sha nevaralar ham onamni qo'msashadi, ko'p eslashadi.

Oxiratingiz obod, borgan joyingiz jannat bo'lsin, onajon. Bizga omomat qolgan otamning umrlari ziyoda bo'lsin!

Yorbek ISKANDAROV

6 HOLAT

BUGUNGI shiddat bilan rivojlana-yotgan iqtisodiy jarayonlar, ijtimoiy turmushimizga kirib kelayotgan integratsion munosabatlar, ayniqsa, yosh oilalarga salbiy ta'sir o'tkazayotgani ham bor haqiqat. Binobarin, oilaviy ajralishlar masalasi bugun yo kechani gapi emas. Bu borada qancha gapirilmasin, bu mavzu hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ajralish so'nggi bekat emas. Ammo oila munosabatlarining fojiali yakun topishi jamiyatimiz va davlatimiz uchun ham achinarli holat, albatta. Quyidagi fojiali holat ham afsuski, oila mavzusi bilan bevosita bog'liq.



Oiladagi muhit nosog'lom bo'lsa, FOJIALARGA SABAB BO'LADI

2016-yilning ayni bahorida A.B. bilan G.U. ezgu niyatlari bilan oila qo'rg'onini barpo etishgan edi. Oradan vaqt o'tib oilada ikki nafar farzand voyaga yetayotgandi. Afsus va nadomatlar bo'lsinki... Oilaga xiyonatning qo'llari og'u sochdi, shubhaning vasvasasi qutqu soldi. Oila munosabati fojiali yakun topdi.

...Dastlabki tergov hujjatlariga ko'ra, 1989-yilda tug'ilgan G.U. ni turmush o'rtog'i 1987-yilda tug'ilgan A.B. xiyonatda ayblab,

pichoqlab o'ldirgan. Ular o'rtasida kelib chiqqan qishmoqchilik oqibatida A.B. 2022-yilning oktabr oyi oxirida turmush o'rtog'ining ota-onasi yashaydigan manziliga kelib, hovli darvozasi yopiqchilik sababli qo'shni uyni devori orqali oshib o'tadi. U xonadonning kichik mehmonxonasida bo'lgan xotinining turli joylariga pichoq urib, og'ir tan jarohati yetkazadi. Va A.B. voqea joyidan to'g'ri ichki ishlar idorasiga borib, sodir etgan jinoyati xususida xabar beradi.

Hayot va o'lim orasi bir qadam, bir nafas. Bir daqiqa ba'zida hamma narsani o'stin-ustun qilib yuborishi, barbod qilishi mumkin. Bu fojia ham ana shunday sodir bo'ldi.

Tergov jarayonida aniqlanishicha, rafiqasining xatti-harakatlaridan shubhalangan A.B. o'zining telefon raqami orqali ayolining telegram kanaliga ulanib olgan va uning telegramiga kelgan, u yozgan xatlarni o'qiy boshlagan.

U 2022-yil 28-oktabr kuni rafiqasining telegram kanalidagi xabarlarini biridagi yozishmalarini o'qib, undan avval 2022-yil iyul oyida rafiqasining ovozi xabarida ham uning xiyonat qilgani to'g'risidagi ma'lumotlardan xabar topgan.

Shundan so'ng turmush o'rtog'i bilan gaplashib, unga bolalardan voz kechsa tinch qo'yishini, bolalar unda qolsa boqolmasligini, nima ishlar qilganini hech kimga aytmasligini, bolalarni unga berib, ota-onasining uyida qolishini aytganida ayolining unga "agar men xiyonat qilgan bo'lsam ham sud bolalarni menda qoldiradi" deyishi uni battar g'azablantiradi. Shundan keyin A.B. da bolalarni o'zida olib qolish uchun turmush o'rtog'ini o'ldirish niyati paydo bo'lganini o'z ko'rsatmasida tasdiqladi.

Toshkent shahridagi korxonalarning birida xizmatchi bo'lib ish-

lagan yigit shunday shubha va gumonlar iskanjasida xiyonatni kechira olmasdan shu tariqa o'z rafiqasining qotiliga aylanadi. Ayol og'ir tan jarohati oqibatida voqea joyida vafot etgan.

Insonning hayotiga suiqasd qilishga hech kimning haqqi yo'q. Telefondagi yozishmalarni xiyonatning isboti deb qarash oqibatida bir yosh ayolning umri xazon bo'ldi.

Dunyodagi barcha millatlar kabi o'zbek millatida ham oilada ayolning vafo va sadoqati o'ta muhim sanaladi. G.U.ning o'ylamay bosgan qadami bu oilaga qimmatga tushdi. Butun bir oila barbod bo'ldi. Norasida bolalar yetim qoldi...

Oila ruhiyati – o'zaro munosabatlardagi mehr-muhabbat, o'zaro ishonch, sadoqat va kechirimlilik kabi jipslashtiruvchi xislat va fazilatlaridan tarkib topadi. Bunday qadriyatlar ortib borgan sayin – oila ruhiyati yuksaladi, ular yo'qolsa, oila parokandalikka yuz tutadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson oilasi manfaatiga zid bo'lgan narsalardan ongli ravishda tiyilishi kerak. Ya'ni, oila manfaatlari ustuvorligi, avvalambor, uning a'zolari tafakkurida bunyod bo'lishi shart va muhim. Abdurauf Fitratning "Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat shuncha kuchli va tartibli bo'ladi" degan so'zlarini unutmaylik.

Amriddin BAHRIDDINOV,

Bosh prokuratura tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat boshqarmasi katta prokuror kriminalisti

E'LOMLAR

"Advokatura to'g'risida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabr-dagi 807-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasi berish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan quyidagilardan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi tugatiladi va ayrimlarini to'xtatildi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslar:

T/r	F.I.SH	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1	Bayzakov Baxodir Maxmudovich	26.04.2023-yildagi 135-son
2	Nazarova Manzura Nishanovna	26.04.2023-yildagi 135-son
3	Tajibayev Raximjon Nematovich	26.04.2023-yildagi 135-son
4	Xaknazarov Shanazar	26.04.2023-yildagi 135-son
5	Maksudov A'zamjon Tashkenbayevich	26.04.2023-yildagi 135-son
6	Yakubov Sandjar Amedjanovich	26.04.2023-yildagi 135-son
7	Sidikov Zulfar Umarovich	26.04.2023-yildagi 135-son
8	Miraliyev Marjan Mirzakarimovich	26.04.2023-yildagi 135-son
9	Yusupov Valixon	26.04.2023-yildagi 135-son
10	Xabibullayev Akbar Buzrukovich	26.04.2023-yildagi 135-son
11	Raxmonov Avaz Rutsamovich	26.04.2023-yildagi 135-son
12	Nasriddinov Faxriddin Ziyoviddinovich	26.04.2023-yildagi 135-son
13	Sadikov Ulugbek Maxamadaliyevich	26.04.2023-yildagi 135-son
14	Sharipova Bivlaysha	26.04.2023-yildagi 135-son
15	Xasanov Axmatjon	26.04.2023-yildagi 135-son
16	Kurbanova Farida Fayzullayevna	26.04.2023-yildagi 135-son
17	Jurayev Davranbek Niyazovich	26.04.2023-yildagi 135-son
18	Yakubov Ilham Usmanovich	26.04.2023-yildagi 135-son
19	Xaydarov Azamat Ravshanovich	26.04.2023-yildagi 135-son
20	Orudjeva Saodat Azizxon qizi	26.04.2023-yildagi 135-son
21	Kadirkulov Adxam Ochilovich	26.04.2023-yildagi 135-son
22	Nam Robert Yurevich	26.04.2023-yildagi 135-son
23	Chekmareva Nadejda Vitalevna	26.04.2023-yildagi 135-son
24	Chorliyev Taxirjon Usmanovich	26.04.2023-yildagi 135-son
25	Karabayev Abdumalik Abdurazimovich	26.04.2023-yildagi 135-son
26	Abduqodirov Anvarxoja A'zamovich	26.04.2023-yildagi 135-son
27	Nurova Tursunay Abdullayevna	26.04.2023-yildagi 135-son
28	Baymanov Abduraxim Xakimovich	26.04.2023-yildagi 135-son
29	Azimov Ilxam	26.04.2023-yildagi 135-son
30	Abdiyev Orzimaxmat Tilavdiyevich	26.04.2023-yildagi 135-son
31	Silnov Arkadiy Valerovich	26.04.2023-yildagi 135-son
32	Xamidova Dilbar	26.04.2023-yildagi 135-son
33	Xoliqov Aslam Azamovich	26.04.2023-yildagi 135-son
34	Asriyan Boris Grigorevich	26.04.2023-yildagi 135-son
35	Xomedov Alisher Akramovich	26.04.2023-yildagi 135-son
36	Talibjanovna Ulmasxon Abdumadjitovna	26.04.2023-yildagi 135-son
37	Alimov Muxsom Qodirovich	26.04.2023-yildagi 135-son
38	Babadjanov Xusan Berdikulovich	26.04.2023-yildagi 135-son
39	Gulamov Baxtiyor Sultanmuratovich	26.04.2023-yildagi 135-son

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi to'xtatilgan shaxslar:

T/r	F.I.SH	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Asos bo'luvchi hujjat sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1	Usmonov Zafarjon Maxammadaliyevich	2019-yil 1-maydagi TN 001484	26.04.2023. 135-son	2023-yil 4-apreldan 4 oy
2	Abdullayeva Yunella Roziyevna	2019-yil 6-fevraldagi SU 000119	26.04.2023. 135-son	2023-yil 26-apreldan 3 oy

Navoiy viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 26-apreldagi 47-um-sonli buyrug'iga asosan Navoiy shahridagi "BAXS-NAVIOY" advokatlar hay'ati advokati Umarov Laps Mavlavichning advokatlik maqomi tiklandi.

Andijon viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 19-apreldagi 95-um-sonli buyrug'iga asosan Bo'ston tuman "Shu-la plus imkon" advokatlik firmasi advokati Kazakov Gulomkiddiga 2022-yil 14-fevralda berilgan AN 000248 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda Andijon shahar "NUR ZIYO-FEMIDA" advokatlar hay'ati advokati Abdullayev Adxamjon Abdumalikovichga 2018-yil 21-dekabrda berilgan AN 000095 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi va advokatlik maqomi tugatildi.

Xorazm viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 1-maydagi 61-um-sonli buyrug'iga asosan "Legalis armis" advokatlik byurosi advokati Qo'chqorov Rustam Solimovich jinoyat ishi doirasida ayblanuvchi tarqasida jalb etilganligi sababli, unga tegishli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomining amal qilishi sud hukumati qonuniy kuchga kirguncha qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoyat javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilguncha qadar. Urganch tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 29-martdagi hal qiluv qaroriga asosan "Huquqiy Rennessans" advokatlik byurosi advokati Atabev Ravshanbek Adilbekovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomining amal qilishi 2023-yil 29-aprel kundan 6 oy muddatga to'xtatildi.

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malika komissiyasining 2023-yil 2-maydagi 4-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi shahrida xususiy

amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Muxammad-Ali Ismatovichga (litsenziya KS 0002, 2020-yil 22-aprel) viloyati adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilinishi 3 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 3-may kundan 2023-yilning 3-avgust kunga qadar hamda G'uzor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xamrayev Ilyos Muzafarovichga (litsenziya KS 0041, 2020-yil 27-aprel) viloyati adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 3 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 3-may kundan 2023-yilning 3-avgust kunga qadar to'xtatildi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi tomonidan "Adolat qo'rg'oni" advokatlar hay'ati advokati Sobitov Dilmurod Solijonovichga viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 24.12.2018-yilda berilgan NA 000011-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda uning advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malika komissiyasining 2023-yil 1-maydagi 6-sonli qarori asosida adliya boshqarmasining 2023-yil 1-maydagi 90-um-sonli buyrug'i bilan advokat Bobojanov G'ayratjon Ebadovichning advokatlik maqomi tiklandi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi jamoasi boshqarmaning ish yurituvchisi lavozimida faoliyat yuritib kelgan **Bahrom RAHMANOV**ning vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

MAKTAB o'qituvchilarining kaltak yeyayotgani haqidagi xabarlar tarmoqlar lentasida oxirgi paytlar ko'p marta aylandi. Jabrlanuvchilar – otamizday ulug' ko'rishimiz kerak bo'lgan ustozlar, zo'ravon "qahramonlar" esa har xil: – ota-ona, maktab direktori, jismoniy tarbiya o'qituvchisi va hokazo...

O'QITUVCHIGA QO'L KO'TARISH... HUQUQIY VA INSONIY JAVOBGARLIK HAQIDA

Farg'onada maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchisining onasi tomonidan kaltaklandi. 33 yoshli ayol o'quvchilarning ko'z o'ngida o'qituvchini haqoratlab, urgan. Voqea sodir bo'lgan kuni maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchi qizga maktabga ota-onasi bilan kelishini aytib, talab qo'ygan. Bu esa qizning onasini g'azablantirgan. Shundan so'ng maktabga kelib janjal ko'targan.

Surxondaryoda esa ikki o'qituvchi ayolning erkak kishi tomonidan kaltaklangani keng jamoatchilikning katta e'tirozlariga sabab bo'ldi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamkasb ayollarni ayovsiz kaltakladi.

Zo'ravonlik haqida gapirilganda, odatda, voqea muhiti, sharoit, yosh nisbati, ruhiy holat kabi bir necha omillar va sabablar olib chiqiladi, garchi bular do'pposlashni, kaltaklashni biron-bir darajada oqlamasa ham. Ustozlar kaltak yeyayotgan yuqoridagi holatlarga esa bu omillardan birontasini pesh qilib bo'lmaydi. Faqatgina bitta sabab ko'rinyapti: jamiyatda o'zini tutish qoidalarini bilmaslik yo bilib turib amal qilmaslik!

HUQUQIY JAVOBGARLIK QANDAY?

Huquqshunos Ma'ruf Lukhayevning ma'lumot berishicha, bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik jinoyat sifatida baholanadi. Uning aytishicha, agarda urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilsa, – BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki

300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Agarda badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilsa, uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, ta'lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Bunda, ta'lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga ta'lim oluvchilarning bilimini to'g'ri va xolis baholashiga ta'sir ko'rsatish bilan ifodalangan tarzda qonunga xilof ravishda aralashish yoki ta'lim tashkiloti pedagog xodimining xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish:

- fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha;
- mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qizining o'qituvchisini urgan farg'onalik ayolga 6 million so'm jarima jazosi tayinlangan. Surxondaryoda ayol o'qituvchilarni kaltaklagan jismoniy tarbiya o'qituvchisiga jinoiy ish ochildi.

INSONIY JAVOBGARLIK-CHI?

Qonuniy jazo doim ham yetarli bo'ladimi? Jari mani to'lab, axloq tuzatish jarayonini o'tab qaytilaveradi, qachonki, ma'naviyat o'zgar mas ekan, ma'rifatli bo'lmas yoxud ma'rifatlilarni hurmat qilmas ekanmiz, ahvol o'zgarishi qiyin.

Ustozlarga hurmatsizlik qilish bizning avlodlarimizga begona bo'lgan. Tarixda, bizdan sal oldinroqdagi tarixiy zamonda ham ilm ahliga qo'l ko'tarish degan suyet yo'q. Tarixda ustozga hurmat ko'rsatishning har xil darajalari bor: ilm ahli oldida o'zlarini qul sanagan Hazrati Ali, ustozining o'yingaroq farzandiga har gal ta'zimga oshiqqan Burhoniddin Marg'inoniy, piridan oldin biror marta so'z boshlamagan imom G'azzoliy, ota-onaning mehridan ustozning jabrini afzal ko'rgan Sa'diy Sheroziylar bor faqat!

Shu sabab insoniy javobgarlikni tarixdan topish qiyin bo'ldi. Eng qattiq javobgarlik esa izohlarda qoldirilgan achchiq muhokamarlar bo'ldi, nazarimda.

Madhiya AVAZOVA,
"Adolat" milliy huquqiy
axborot markazi mas'ul xodimi

Mehnat ta'tilini hisoblashda yakshanba ham qo'shiladimi?

– AVVALLARI mehnat ta'tilini hisoblashda shanba kuni hisobga olinardi. Eshitishimcha, endilikda yakshanba kuni ham qo'shib hisoblanar ekan. Shu to'g'rimi?

Sohiba MANSUROVA,
Toshkent shahri



– Xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi kalendar kunlarda hisoblab chiqariladi. Ya'ni, sodda qilib aytganda, yakshanbani ham ta'til muddatiga qo'shib hisoblaysiz. Avvalgi eski tahrirdagi kodeksda esa 139-modda bo'yicha, ta'tillarning muddati 6 kunlik ish haftasi yuzasidan kalendar bo'yicha ish kunlari bilan hisoblab chiqarilardi. Ya'ni, yakshanba ta'til muddatiga qo'shilmas edi.

Har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomiyligini belgilashda hisobga olinmaydi. Ya'ni, 9 ta (11-noyabr – O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni ishlanmaydigan bayram kunlari qatoriga qo'shilsa 10 ta bo'ladi) ishlanmaydigan bayram kunlari ta'til muddatiga qo'shilmaydi.

– Ishlanmaydigan bayram kuni yakshanbaga to'g'ri kelsa-chi? Masalan, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni 2023-yil yakshanba kuniga to'g'ri keladi. Unda ta'til qanday hisoblanadi?

– Mehnat kodeksining 221-modda birinchi qismiga ko'ra, yuqorida qayd etilganidek, yakshanba ta'tilga qo'shiladi. Lekin 221-moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomiyligini belgilashda hisobga olinmaydi, ya'ni bu holatda 1-oktabr yakshanba ta'tilga qo'shilmaydi. Mehnat kodeksining 208-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chiriladi. Bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmaydi.

Savollarga "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi **Charos YULDASHEVA** javob berdi.

USTAMA UNDIRILDI

PARKENT tuman adliya bo'limiga fuqaro Sh. Xosilovdan murojaat kelib tushgan. Unga ko'ra, fuqaro 2019-yildan buyon Parkent tuman Xalq ta'limi bo'limida ta'limni raqamlashtirish sho'basi xodimi lavozimida ishlayotganini va unga Prezidentning 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining 7-bandiga asosan ustama to'lovlari to'lanmayotganini ma'lum qilib, bu borada amaliy yordam berishni so'ragan.

Adliya bo'limi xodimlari tomonidan Sh. Xosilovning murojaati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish davomida aniqlanishicha, Sh. Xosilov 2019-yil 5-noyabrdan ta'lim muassasalariga AKTni joriy etish va rivojlantirish sho'basi metodisti lavozimiga o'tkazilgani va unga Prezidentning 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 7-bandiga asosan 107 million 206 ming 221 so'm ustama to'lovi to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan Parkent tuman Xalq ta'limi bo'limi, ta'lim muassasalariga AKTni joriy etish va rivojlantirish sho'basi metodisti Sh. Xosilovga 107 million 206 ming 221 so'm miqdorida ish haqiga qo'shimcha ustama undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Yuqorichirchiq tumanlararo sudiga kiritilgan ariza to'liq qanoatlantirildi va Parkent tuman Xalq ta'limi bo'limi zimmasiga fuqaro Sh. Xosilovga qo'shimcha ustama haqini to'lab berish majburiyati yuklatildi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Parkent tumani adliya bo'limi boshlig'i

8 ADABIY AYVON

Shundan buyon mana sakkiz oy o'tdiki, Maston xolaning ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi. Negaki erta-indin yakkayu yolg'iz o'g'li G'ulomjonni ham chaqirib qolishlarini o'ylab, halovati yo'qolgan. "Bolaginam urushda o'lib ketsa, nima qilaman? Ana, kuni-kecha yuqori mahalladagi Salima otinining o'g'lidani qoraxat keldi; do-o-oo-d, - deb o'tiribdi boyaqash". Ana shularni o'ylab, bu kecha ham uxlo olmay chiqdi onaizor. Axir xudodan tilab, salkam o'n yilda ko'rgan va shamoldan ham qizg'onib katta qilgan bolasini qanday qilib ajal komiga yuboradi?

Otasi Jo'ra amaki Mastonni dastlab qo'shni qishloqdagi Yunus qassobga uzatgandi. Garchi, qassob salkam 10 yosh katta esa-da, qiz bechora ota izmidan chiqolmay unga tegishga majbur bo'lgandi o'shanda. To'g'ri, Yunus Mastonga qattiq gapirmas, ammo shirin muomala qilib, erkalatmasdi ham. Balki shu uchundir, Maston hadeganda eriga moslashib ketolmadi. Eng achinarlisi, taqdir ularni farzanddan qisdi. Bir kuni alamzada qassob Mastonni "Tug'massan, shum qadamsan" deya aybladi. Oxir-oqibat boyaqash juvon otasinikiga arazlab keldi-yu, shu bilan erinikiga qaytib bormadi.

Maston chevar ota uyida uch-to'rt yil o'tirib qoldi. O'rik avji gullaganda pastki mahalladagi Shirmon buvi uni burnog'i yil xotini o'lgan o'g'li Rohotaliga so'rab keldi. Yigirma kun deganda Maston o'sha oilaning keliniga aylandi. Biroq ikkinchi turmushining dastlabki o'n yili ham befarzandlikda kechdi. Vanihyot o'ttiz uch yoshga yetganida o'g'li G'ulomjon tug'ildi.

Buni qarangki, bu hayotni g'amga saxiy, shodlikka xasis deb bejiz aytishmas ekan. Negaki, G'ulomjon endigina 5 yoshga qadam qo'yganda Shirmon buvi bilan Rohotali birin-ketin omonatlarini topshirishdi. Shu-shu, Maston boshqa turmush qilmadi. O'g'lini o'gay otaning qo'liga topshirgisi kelmay, o'zidan ham kechdi. Bolasini bir o'zi boqib, katta qildi. Endi u urushga ket-sa... Yo'q... Aslo...

Ertasi kuni "Maston xolaning o'g'li G'ulomjon uydan chiqib ketib qaytib kelmaganmish" degan ovoza butun qishloqqa tarqaldi. Hamma hayron: nahotki, binoyidek yurgan yigit birdan yo'qolib qolsa? Dilbar xola, Soliya kinnachi, Ummugulsin kampir va mahalladagi yana bir-ikkita ayollar esa ayvonda yig'lab o'tirgan Maston xolani yupatish bilan ovora edi.

- Kecha ertalab "Enajon, shaharga, bozorga borib kelaman" deb chiqib ketgandi. Lekin qaytib kelmadi.

Urush boshlangani haqidagi mudhish xabar butun mamlakat bo'ylab, jumladan hamma bug'doy o'rim-yig'imi bilan andarmon bo'lib turgan To'rtol qishlog'iga ham yashin tezligida tarqaldi. Buni eshitib, kimdir yig'ladi, yana kimlarningdir yuragini vahima bosdi. Ko'p o'tmay, qishloq yigitlarini birin-ketin urushga olib keta boshlashdi.



- U yoq-bu yoqdan so'rab-suriishtirdingizmi? - so'radi Soliya kinnachi.

- Kechasida qayoqqa borishni, kimdan so'rashni bilmadim. Igna yutgan itdek bo'lib, hovlida yurib chiqdim. Ertalab Asad melisaga xabar berdim, - dedi ayol yig'idan biroz to'xtagandek bo'lib.

- Mayli, aylanay, hadeb yig'layvermang. Melisa albatta topadi. Ajabmas G'ulomjonning o'zi kelib qolsa, - deya yana tasalli berdi Ummugulsin xola.

Shu payt ko'cha eshik taqillab, yaltiroq tugmali forma, qo'ng'iz tizzaga cha keladigan etik kiygan Asad melisa kirib keldi.

- Opa, men gorotdelga G'ulomjonning yo'qolgani haqida raport berdim. Endi uning birorta rasmini menga bering, shaharga jo'natishim kerak. Keyin o'g'lingizni qidiruvga berishadi.

Melisaning gapini eshitib, Maston xolaning yuragi "shig'" etdi. Shu bois bo'shshib ichkari uyga kirib ketdi. Birozdan keyin G'ulomjonning boldalikda tushgan, chetlari sarg'ayib ketgan suratini ko'tarib chiqdi.

- Mana, boshqa rasmi yo'-o'-q ekan...

Ana shu voqeadan so'ng kunlar, haftalar, oylar o'tdi. Ammo G'ulomjon topilmadi. Bu orada Maston xola bir-ikki marta melisaxonaga borib, "O'g'limdan darak bormi?" deb so'rab turdi.

Kunlarning birida Dilbar xola odatdagidek qo'shnisidan xabar olgani chiqqandi (odatda yaqin qo'shnilar bir-birinikiga chaqirmay ham kirib kelaverishadi). Shunda hovli etagidagi quduq tepasida allanimalar qilayotgan Maston xolaga ko'zi tushdi.

- Ha, qo'shni, otam zamonidan berisuv chiqmayotgan qudug'ingizni tepasida nimalar qilyapsiz?

Uning gapi Maston xolani ham cho'chitib yubordi, ham esankirab qo'ydi. Shu bois u shosha-pisha quduq qopqog'ini yopib, ayvon tomon yurdi.

- K-keli-ing, aylanay, - Dilbarxonning savoliga javob berolmay kavlolanib qoldi Maston xola. Birozdan keyin sal hayajoni bosilib, gapida davom etdi. - Bir vaqtlar butun hovlini shu quduqning suvi bilan sug'orardik-da. O'sha paytlarni eslab o'tirgandim.

U shunday deya quduq tomonga qarab-qarab qo'ydi. So'ng ayvondagi so'rg'a ko'rpacha solib, qo'shnisini to'rg'a chiqardi. Dilbar xola esa uning holatiga e'tibor bermadi. Aksincha, hol-ahvol so'rashgach, urushdan gap ochdi.

- Eshitingizmi, Jannat opaning o'g'li Botiralidan tilgrom kelibdi. Kamandiri "Rahmat" deganmish. Qulmat pochtaichining o'zi o'qib beribdi.

- Q-qayodan eshitaman, Dilbarxon. O'zinning dardim o'zimga yetarli bo'lsa.

- Ha, nimasini aytasiz, qo'qindi. Urush degan bala hammani o'ylan-tirib turgan bu paytda sizga o'g'lingizning yo'qolgani ortiqcha bo'ldi. Endi nimayam qilardingiz, peshonangizda shu ko'rgulik ham bor ekan...

Hayotda farzand uchun onadan mehribon va jonkuyarroq zot bo'lmasa kerak. Ona bolasi uchun har qanday bala-qazo himoyasiga shay. Maston xola ham o'sha kecha yolg'iz jigarbandini qanday qilib ajal domidan asrab qolishni o'ylab mijja qoqmadi. Oxir-oqibat G'ulomjonni yashirib qo'yish rejasini tuzdi.

- Bolaginam, agar senga biror korhol bo'lsa, men tirik murdaga aylanam. Shuning uchun seni urushdan

o'zim olib qolaman.

- Nima demoqchisiz, ena, meni qanday qilib olib qolasiz? - hayron bo'lib so'radi G'ulomjon.

- Seni quduqqa berkitaman, bolam. Keyin "O'g'lim yo'qolib qoldi" deb gap tarqataman. Shunda seni qidirish-sayam, topisholmaydi.

- Yo'q, ena. Menga bunaqa sharmandalikdan o'lim afzal.

- Shunaqami? Senga o'lim afzal bo'lsa, menga bolam afzal.

- Axir keyin men qishloqda qanday qilib bosh ko'tarib yuraman? Tushunsangizchi, ena.

- Ko'p gapirma. Ana, Salima xolangni o'g'li Do'smat, ketganiga hali to'rt oy bo'lmasdan qoraxat kelib o'tiribdi. Nima, sen enangni tirigicha ko'mmoqchimisani?

Xullas, Maston xola shunday o'jarlik bilan oyoq tirab turib oldi. Deyarli ota tarbiyasini olmagan G'ulomjonga esa qat'iyat yetishmadi. U o'ylana-o'ylana yigitlik g'ururidan ona roziligini ustun qo'ydi.

Shunday qilib G'ulomjonning ke-yingi uch yillik hayoti goh quduqda, goh yerto'lada kechdi. Ya'ni, Maston xola tong otmasidanoq ko'cha eshikning og'ziga borib, poyloqchilik qilar, yigit bo'lsa yugurgancha yerto'laga kirib ketar yoki quduqqa tushib olardi. Uyga hech kim kelmagan yoxud qo'ni-qo'shnilar chiqmagan mahallada yerto'lada, kimningdir kelish ehtimoli bo'lsa, quduqda o'tirardi. So'ng butun qishloq uyquga ketgach, onasi chiroqni o'chirib turganidan foydalanib, ichkari uyga kirib yotardi. Qahraton qish kunlarida esa taxmonga qo'yilgan, qalin parda ortidagi katta sandiqda jon saqlardi.

Kolxoz idorasidagi radiouzeldan g'alaba haqdagi xushxabar yangradi. Millionlab mard o'g'lonlar jasoratli, xususan besh yuz mingdan ortiq o'zbek jangchilarining qurbonligi, aka-ukasi, o'g'li yoki turmush o'rtog'ini intizor kutgan ayollar - onalar, kelinlar va opa-singillarning mashaqqatu matonati samarasi bo'lgan bu quvonchli mujda barcha intiq qalblarga, jumladan To'rtol xonadonlariga ham beqiyos shodu xurramlik, munavvarlik baxsh etdi.

- G'alaba-a-a, g'alaba-a-a, - deya qishloq ko'chalarini boshlariga ko'tarib yugurgilashdi bolakaylar. Ularning hayqirig'i quduqda o'tirgan G'ulomjonga ham eshitildi...

Ertasi kuni saharda esa Maston xolaning "Voy, bolam, enang o'lsa bo'lmasmidi?!" deb uvvos tortgani butun qishloqni larzaga keltirdi...

Xurshid SULTONOV

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbeq Iskandarov
Diifuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusbod tumani, 17-mayev, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj - 3850
Buyurtma - 1383

Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5